

## SUD-KIMYO LABORATORIYASI TEKSHIRUVLARI UCHUN FUQAROLARDAN QON VA SIYDIK OLISH TARTIBI

*Ismailova Lazzat Nurjon qizi*

*Odilova Shoxsanam Axrorxo'ja qizi*

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi*

*Toshkent viloyat filiali*

*E-mail: [Toshvilsteb@mail.ru](mailto:Toshvilsteb@mail.ru) tel:+998 77-0920098*

**Kalit soʻzlar:** Qon, sийдик, стерил, pH-шароит, индикатор

**Izoh:** Фуқаролардан қон ва сийдик намуналарини қонун-қоидалар асосида тўғри тартиб билан олиниши, экспертиза текширувларининг аниқлиги ва ҳаққоний хулосалар олинишига сабаб бўлади.

**Аннотация:** Надлежащий сбор образцов крови и мочи у граждан в соответствии с законами и правилами обеспечивает точность экспертных исследований и предоставление правдивых выводов.

**Annotation:** Proper collection of blood and urine samples from citizens in accordance with laws and regulations ensures the accuracy of expert examinations and the provision of truthful conclusions.

Sud-kimyo laboratoriyalari faoliyatida fuqarolardan olinadigan qon va siydik namunalari ekspertiza xulosasining ishonchligini ta'minlovchi muhim manba hisoblanadi. Namuna olish jarayonining belgilangan tartibda amalga oshirilishi tahlil natijalarining aniqligi, huquqiy kuchi hamda fuqarolarning huquqlari va himoyasini ta'minlaydi.



### **Namuna olish mumkin bo'lgan shaxslar**

Ekspert tekshiruv uchun namunalar gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin. Xodisa sodir bo'lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida yetarlicha asoslar bo'lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruv uchun namuna olinishi mumkin. Pullik xizmat asosida o'tkaziladigan tekshiruvlarda murojaat qilgan shaxs- fuqarodan olinishi mumkin.

### **Namuna olishda fuqarolarning huquqlari**

Tirik shaxslardan biologik namuna olishdan oldin ularga jarayon mazmuni tushuntiriladi va imkon qadar yozma roziligi olinadi. Jinoyat ishi doirasida sud yoki tergov organining qaroriga asosan roziliksiz ham namuna olinishi mumkin. Fuqaroning rad javobi bayonnamoda qayd etilishi shart.

### **Namuna olish sharoiti va ma'sul shaxslar**

Qon va siydik namunalari sud-tibbiy ekspertiza muassasida yoki tibbiyot tashkilotida olinadi. Namuna olish faqat tibbiyot xodimi tomonidan, sanitariya-gigiyena va sterillik qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

### **Shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan namunalar olish tartibi**

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli shaxsni, shuningdek undan namuna olish to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni shifokorga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi. Shifokorni, boshqa mutaxassisni, xolislar rad etish masalasini qaror yoki ajrim chiqargan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hal qiladi. Shifokor yoki boshqa mutaxassis zarur xarakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruv uchun namunalar oladi. Namunalar o'ralib va muhrlanib, surishtiruvchi yoki sudga yuboriladi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli shaxsdan namuna olish to'g'risidagi qaror yoki ajrimda biologik namunalarni sud-tibbiy ekspertizada olish ko'rsatilgan taqdirda sud-tibbiy ekspertizaning maxsus jihozlangan muolaja xonasida olinadi. Sud-kimyo ekspertizasi tayinlanganda qaror (ajrim) bilan birga ashyoviy dalil, ularning qachon, qayerda, kim tomonidan olinganligi va namuna olish to'g'risidagi bayonnoma bilan o'rama holda qabul qilinishi lozim. Tirik shaxslardan namunalar (biologik ob'ekt) olishda qoidalarga muvofiq bayonnoma rasmiylashtiriladi. Unda tekshiriluvchi shaxs, ob'ekt olgan tibbiy xodim, ekspertiza va tekshiruvni talab qilgan idora xodimi ismi sharifi, namuna olingan joy, olingan biologik ob'ekti turi va xajmi; xolislar ismi shariflari va imzolari keltiriladi. Tekshiriluvchi shaxsning yoshi, jinsi, boshqa dori turlari, alkogol, kofe, choy, tamakini iste'mol qilishi ko'rsatiladi. Qabul qilingan ashyoviy dalillarni tegishli sharoitda qabul qilish, tekshirish va saqlash choralari ko'riladi. Agar ashyoviy dalillar o'rami tegishli tarzda o'ralmagan bo'lsa, qaror va namunalar olish bayonnomasidagi ma'lumotlarga mos kelmasa, ekspertiza (tekshiruv) tayinlagan idora yoki shaxsni ogohlantirib, kamchiliklarni bartaraf etish imkoni bo'lmasa qaytarish chora tadbirlari ko'riladi.

Siydik tekshirilayotgan shaxs tomonidan shisha yoki plastik idishda yig`iladi. Siydik 200 ml gacha bo`lgan miqdorda keng bo`yinli graduirlangan idishga 100 ml dan kam bo`lmagan miqdorda olinadi. Alkogol tekshiruvlariga 8-10 ml olinadi. Flakon shu zahoti qopqoq bilan yopiladi va leykoplastir bilan maxkamlanadi, o`rama holiga keltiriladi, muhrlanadi. Siydik sud-kimyoy bo`linmasida olingan bo`lsa dastlabki 5 daqiqada quyidagi tahlil bajariladi (imkon qadar):

- Harorati o`lchanadi (siydik olingandan keyin 4 daqiqadan oshmasligi kerak, shisha simob termometrda (odatda harorat o`rtacha 32.5-37.7°C gacha) o`lchanadi;
- Universal indikator qog'ozi yordamida siydik pH sharoit (normal siydik pH sharoiti 4-8 birliklari oralig`ida) o`lchanadi.
- Agar dastlabki tadqiqot nomuvofiqlikni aniqlasa ushbu bandda ko`rsatilgan ko`rsatkichlar xulosa va dalolatnomalarda qayd etiladi.

Dastlabki tadqiqotlardan so`ng siydik ikki qismga bo`linadi (umumiy hajmning 1/3 va 2/3 qismi) va ularni ikkita 100 ml hajmli germetik yopiladigan plastik idishlar yoki stakanga joylashtiriladi, muhrlanadi. Siydikning 1/3 bo`lgan miqdori birinchi idish (nazorat namunasi) sifatida saqlanadi. Ikkinchisi (tahlil qilinadigan namuna) kimyo-toksikologik tadqiqotlar uchun ishlatiladi.

Siydikni spirtli ichimliklar va uning surrogatlarini aniqlash uchun yuborilganda, tahlil uchun olingan namunali idishdan toza 10 ml li quruq shisha idishga kamida 5 ml miqdorida olinadi alyuminiy qopqoq bilan yopiladi, mahkamlanadi va muhrlanadi.

Siydik namunasi alkogol va uning surrogatlari, giyohvandlik vositalari psixotrop va boshqalar zaharlanishni (mastlik) keltirib chiqaradigan zaharli moddalar va ularning metabolitlariga tekshiruvga olingan kundan ikki kundan kechiktirmay laboratoriyaga yetkaziladi.

Siydik namunalarini ekspertiza (tekshiruv) o`tkazilishi davomida 0-2°C haroratda (tez parchalanuvchi modda saqlasa muzlatilgan holda) saqlanadi. Konservantlar qo`shish uslubiy qo`llanmaga asosan bajariladi.

Kimyoy toksikologik tekshiruvlar uchun 15 ml qon olinadi. Tekshiriluvchidan qon namunasi talablarga muvofiq jihozlangan xonada, aseptika qoidalariga rioya qilgan holda, bir martalik steril qo`lqopda amalga oshiriladi.

Qon yuza venadan quruq, toza flakonga solinadi. Qon olishdan oldin teri yuzasi dezinfeksiyalovchi eritmada namlangan tampon bilan artiladi, muolajadan so`ng xam yara yuzasi xuddi shu eritma bilan namlangan yangi steril tampon bilan dezinfeksiyalanadi.

Qon quyulishini oldini olish maqsadida xar 10 ml qonga 3-5 tomchi geparin solinadi va bu ma`lumot albatta etiketkada ko`rsatiladi (geparin solinmagan holatlarda ma`lumot ko`rsatilmaydi). Konservant sifatida boshqa moddalardan foydalanilmaydi. Flakonlarning tarkibi darhol aralashtiriladi. Flakon standart qopqoq bilan yopiladi va leykoplastir (alyumin qopqoq) bilan mahkamlanadi muhrlanadi. Flakon ustiga

yopishtirilgan etiketkada tekshiriluvchi shaxs familiya, ismi, sharifi, ob'ekt olingan, sana, vaqt va joyi ko'rsatiladi. 5 ml qon nazorat namunasi sifatida saqlanadi. Ikkinchi flakondagi 10 ml qon (tahlil uchun namuna) kimyo-toksikologik tadqiqotlar uchun ishlatiladi.

Sud-kimyo bo'limlarga qonni yetkazib berish ikki kundan kechiktirmasdan ta'minlanishi zarur. Laboratoriyaga yuborilgunga qadar qon namunasi muzlatgichda 0-2°C haroratda saqlanishi zarur. Qon namunasi hamroh xujjatlar bilan muhrlangan holda sud-kimyo bo'limiga yuboriladi. Etil spirti va uning surrogatlarini aniqlash tekshiruvlari uchun qon olish muolajasida antiseptik vosita sifatida spirtli eritmalar ishlatilmaydi. Analiz olish joyi etakridin yoki furasillinning to'yingan suvli eritmasi bilan ishlov beriladi.

**Izoh:** Pullik tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoni ashyoviy dalillarni olish, qabul qilish, tekshiruv o'tkazish, saqlash ushbu klinik protokollarga rioya etilgan holda olib boriladi.

### **Xulosa**

Fuqarolardan qon va siydik namunalarini olish tartibiga qat'iy rioya etish sud-kimyo laboratoriyalari faoliyatining samaradorligini oshiradi. Mazkur jarayonning qonuniy, tibbiy va tashkiliy talablar asosida olib borilishi ekspertiza natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Toksikologik kimyo" L.T.Ikromov, T.Mirxaitov, M.A.Tojiyev, Z.A.Yuldashev, Toshkent "Extremum Press", 2010
2. "Sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarni o'tkazish bo'yicha milliy klinik protokol " G-26.
3. Н.А.Беленова,Н.В.Мироненко, Т.А.Крысонова "Токсикологическая химия", Воронеж 2016.